

KORXONALAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MEHNAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YÓLLARI

Xolmatova Madina Farhodjon qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistondagi korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda mehnat samaradorligini oshirish chora-tadbirlarining nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, korxonalarda mehnat sharoitlarini yaxshilashda xorij tajribasidan foydalanish va yuqori samaradorlikka erishish yo'llari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mehnat samaradorligi, iqtisodiy tahlil, korxona rentabelligi, innovatsion tizim, ishlab chiqarish unumdorligi.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТРУДА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ

Холматова Мадина Фарходжон кызы

*Студент магистратуры банковско-финансовой академии Республики
Узбекистан*

Аннотация: В данной статье будут освещены теоретические и практические аспекты мер по повышению эффективности труда при обеспечении финансовой устойчивости предприятий Узбекистана. Также анализируются пути использования зарубежного опыта и достижения высокой эффективности в улучшении условий труда на предприятиях.

Ключивые слова: эффективность труда, экономический анализ, рентабельность предприятия, инновационная система, производительность.

WAYS TO IMPROVE LABOR PRODUCTIVITY WHILE ENSURING THE FINANCIAL STABILITY OF ENTERPRISES

Kholmatova Madina Farkhodjon kizi

Master's degree student at the Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract: This article will cover the theoretical and practical aspects of measures to improve labor efficiency while ensuring the financial stability of enterprises in Uzbekistan. The article also analyzes ways to use foreign experience and achieve high efficiency in improving working conditions at enterprises.

Key words: labor efficiency, economic analysis, enterprise profitability, innovation system, productivity.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonda xo'jalik yurituvchi subyektlarning sonini oshishi, ularning moliyaviy barqaror bo'lishi va yuksalishi katta ahamiyat kasb etadi. Har bir mamlakat rivojlanishining birlamchi omili bu – iqtisodiyot hisoblanadi. Iqtisodiyotda esa mehnat samaradorligi, mehnatni hisoblash va uning hosildorligini oshirishdagi ijtimoiy omillar alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi birinchi navbatda, uning moliyaviy barqarorligi va mehnat resurslaridan samarali foydalanish darajasiga bog'liqdir. Albatta, korxonalarining iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishida mehnat unumdorligini oshirish muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylanmoqda. Innovatsion faoliyatni muntazam ravishda rivojlanib borishi, xorij tajribalaridan foydalanish insoniyat va ijtimoiy hayot o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, jamiyatning rivojlanishi va uning barcha sohaları hamda a'zolari farovonligi darajasi mehnat unumdorligi darajasi va uning o'sishiga bog'liqdir. Shu bilan bir qatorda, mehnat samaradorligi darajasi ishlab chiqarish usulini hamda turini belgilab beradi. Mehnat unumdorligi darajasi ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi eng muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy barqarorligi deganda uning zaxiralari va xarajatlarini shakllantirish manbalari bilan ta'minlashni tushunish kerak. Moliyaviy barqarorlikning eng yuqori ko'rinishi korxonaning birinchi navbatda o'z mablag'lari manbalari hisobidan rivojlanish qobiliyatidir.¹

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorij iqtisodchi olimlaridan Adam Smith o'zining "Xalqlar boyligi" asarida mehnat taqsimoti orqali mehnat samaradorligiga erish mumkinligini birinchi bo'lib ilmiy asoslab bergan. Uning fikriga ko'ra: "ishchilarning bir xil ishini takrorlashi va ularning mahoratini oshiradi, vaqt tejaydi va ishlab chiqarish samaradorligini ko'paytiradi"².

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan T.S.Malikov o'z ilmiy ishlarida korxona samaradorligi haqida quyidagicha ta'kidlagan: "Chiqimlarni kamaytirish xo'jalik yurituvchi subyekt ishi samaradorligini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Odatda, chiqimlarni kamaytirishning quyidagi asosiy yo'llari ajratilib ko'rsatiladi: resurslarni tejaydigan ishlab chiqarish innovatsion texnologiyalarni qo'llash; mehnat unumdorligini oshirish; ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish sifatini yaxshilash; kadrlarning malakaviy darajasini oshirish"³.

Q.X.Abdurahmonov, N.Q.Zokirovalar mehnat samaradorligini oshirishda inson omilini rivojlantirish haqida fikr yuritganlar. Ularning ta'kidlashicha, inson omilining bilim va salohiyatini oshishi, inson sog'ligini saqlash va atrof-muhitni yetarlicha muhofaza qilish mehnat samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.⁴

Nazarova M. o'zining ilmiy ishlarida mehnat samaradorligini quyidagicha yoritgan: "Mehnati samaradorligi mehnat unumdorligidan farqli o'laroq faqat mehnatning miqdor ko'rsatkichlarini emas, shu bilan birga sifat natijalarini ham ifodalaydi. Mehnat

¹ Xusanov Q.N. "Korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholashning asosiy yo'nalishlari". Ilmiy maqola. 2016.2-bet.

² Adam Smith. "Wealth of Nations" 1776.

³ Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi (o'quv qo'llanma) / Toshkent moliya instituti. – Toshkent, 2010. – 132-bet.

⁴ Q.X.Abdurahmonov, N.Q.Zokirova. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. -T: Fan va texnologiyalar. 2013.100-bet.

samaradorligi ko'rsatkichining yana bir muhim ustunligi unda mehnat resurslarini tejashning aks etishidir".⁵

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonada mehnat samaradorligini oshirish mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish hajmini oshirish, foydalilik darajasini oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish jarayonidir.

Mehnat samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardir:



1-rasm. Mehnat samaradorligini oshiruvchi omillar.

-Ish jarayonini to'g'ri tashkil etish bu korxonada mehnat taqsimotini oqilona amalga oshirish va ish joylarini qulay tashkil etishdan iborat bo'lib, bu xodimlarni tez va samarali ishlashiga xizmat qiladi. Mutaxassis va sihchilar o'rtasida vazifalarning aniq taqsimlashi mehnat unumdorligini osiradi;

- xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish mehnat samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ish haqi tizimini adolatli tashkil etish, mukofot va bonuslar joriy etish kasbiy o'sishni qo'llab quvvatlash xodimlarni faolroq ishlashga undaydi.

- kadrlar salohiyatini oshirish: xodimlarning bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirish mehnat samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Malaka oshirish kurslari, ichki treninglar, tajriba almashish dasturlari va innovatsion fikrlashni qo'llab-quvvatlash korxonaning inson kapitalini mustahkamlaydi.

- Mehnat sharoitlarini yaxshilash deganda ishchi xodimlar uchun xavfsiz, qulay va sog'lom mehnat muhiti yaratish — samaradorlikning asosiy kafolatlaridan biridir. Ish joylarida sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaxshilash, mehnat muhofazasiga rioya etish va dam olish tizimini yo'lga qo'yish xodimlarning mehnatga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

- Boshqaruv tizimini optimallashtirish: Korxonada boshqaruvning zamonaviy uslublarini joriy etish, rahbarlik madaniyatini oshirish, ichki kommunikatsiyalarni

⁵ Nazarova M. Social factors that increase the productivity of enterprises.2021

takomillashtirish mehnat jarayonlarini tezkor va samarali amalga oshirish imkonini beradi. Natijada qarorlar qabul qilish sifati va tezligi ortadi.

- Xorij tajribasi va innovatsion g'oyalar va ilg'or tajribalarni qo'llashda innovatsion boshqaruv, yangi ish uslublari, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish mehnat samaradorligini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biridir.

- Texnika va texnologiyalarni yangilash ya'ni zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda raqamlashtirish mehnat samaradorligini oshiradi. Yangi texnikalar sotib olish esa ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi.

Mehnat samaradorligini hisoblashda korxonalarda quyidagicha formulalar amaliyotda ishlatiladi:

Mehnat samaradorligi = Faoliyat natijasi (Q) / Xodimlar soni yoki mehnat salohiyati (X)

Ushbu formulada ko'rinib turibdiki, mehnat samaradorligi ikkita omilga bog'liq. Ularning natija o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun bir qancha usullardan foydalaniladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, mehnat samaradorligini oshirish korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, raqobatbardoshligini kuchaytirish va uzoq muddatli rivojlanishni yo'lga qo'yishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois, har bir korxona o'z strategik rivojlanish rejasida mehnat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ustuvor yo'nalish sifatida belgilashi lozim. Mehnat samaradorligini oshirish iqtisodiy o'sishning eng muhim manbalaridan biridir. Ishchi kuchidan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash orqali korxona raqobatbardoshligini mustahkamlash mumkin. Natijada foyda ortadi va iqtisodiyot barqaror rivojlanadi.

Mehnat samaradorligi, avvalo, inson omiliga bog'liq. Xodimning mehnat sharoiti, motivatsiyasi, malakasi va sog'lig'i yuqori bo'lsa, u o'z ishini samarali bajaradi. Shuning uchun rahbariyat tomonidan ijtimoiy himoya, ta'lim va rag'batlantirish tizimlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adam Smith. "Wealth of Nations" 1776.
2. Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi (o'quv qo'llanma) / Toshkent moliya instituti. – Toshkent, 2010. – 132-bet.
3. Q.X. Abdurahmonov, N.Q. Zokirova. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. – T: Fan va texnologiyalar. 2013. 100-bet.
4. Nazarova M. Social factors that increase the productivity of enterprises. 2021
5. Xusanov Q.N. "Korxonalarining moliyaviy barqarorligini baholashning asosiy yo'nalishlari". Ilmiy maqola. 2016. 2-bet.